



## SMART TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

**Muallif:** Mavlanova Nargiza Rustam qizi<sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Samarqand Davlat Chet tillar instituti tayanch-doktoranti va Narpay Xorijiy tillar fakulteti stajyor-o'qituvchisi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.19665591>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xorijiy tillarni xususan, ingliz tilini o'rganish va o'rgatishda SMART texnologiyalar asosida AI vositalaridan foydalanish, ularga qo'yilgan talablar, ushbu vositalardan foydalanishda British Council o'tkazgan tadqiqotning o'rni va ko'lami, bugungi kunda AI ilovalarining til o'rganishdagi ahamiyati va vazifalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** SMART texnologiyalar, Sun'iy intellekt, ilovalar, British Council, so'rovnomalar, monitoring, axloqiy foydalanish.

Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va ta'lim sohalariga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.[1] Nafaqat yurtimizda balki butun dunyo bo'ylab xorijiy tillarni xususan, ingliz tilini o'rganish va o'rgatish bugungi texnologiyalar rivojlangan asrimizda o'z ahamiyatiga ega masalalardandir.

1956-yil Sun'iy intellektning mustaqil fan sifatida shakllanishi[2] va 2020-yillar boshlarida gurkirab rivojlanishi ushbu masala yuzasidan olib borilayotgan ishlarni oldinga siljituvchi va muhokamalar markaziga olib boruvchi bo'ldi. SMART texnologiyalar va Sun'iy intellektning ingliz tili sohasida birlashuvi esa katta o'zgarishlarning debochasi bo'ldi. SMART so'zi qisqartma so'z bo'lib, menejment va loyihaviy boshqaruvda maqsadni aniqlash va masalalarni qo'yish uchun foydalaniladigan mnemonik abbreviatura hisoblanadi. SMART qisqartmasi quyidagi so'zlarning bosh harflaridan iborat:

S - specific - aniq. Maqsad maksimal aniq bo'lishi hamda atrofdagilar tomonidan

bir xil ma'noda tushunilishi lozim. SMART texnologiyasi bo'yicha maqsadlarni oson shakllantirish uchun quyidagi savollarga javob berish kerak: "Bevosita nima qilinishi kerak?", "Qachon?", "Qanday miqdoriy ko'rsatkichlarda?", "Maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan cheklovlar yoki qo'shimcha shartlar mavjudmi?".

M - measurable - o'lchovli. Maqsadga intiladigan kishilar, yaxshi natijalarga erishish uchun aniq bo'lgan mezonlarni oson tushunishlari kerak. Maqsad o'lchanadigan bo'lishi lozim. SMART texnologiyasi shaxsni va u erishadigan natijalarda o'zining foydasini ko'ra oladigan darajada motivatsiya beradi.

A - achievable - erishiladigan. SMART texnologiyasining ushbu mezoni ko'proq

yollangan (taklif etilgan mutaxassis) xodimlarga to'g'ri keladi. Maqsadga erishish uchun barcha mavjud resurslar hamda cheklovlarni hisobga olish lozim. Masalan, vaqt

resurslari, ma'lum bir sohadagi bilim hamda tajriba, axborot resurslaridan umumli foydalanish, to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati va boshqalar.

R - relevant - mos. SMART texnologiyasining yakuniy maqsadi, tashkilot vaziyatiga mos bo'lishi lozim. Maqsad ma'lum bir vaqt oralig'ida katta ahamiyatga ega

bo'lishi kerak. Turli davr mobaynida tashkilot natijasi uchun dolzarb bo'lgan qisqa va uzoq muddatli maqsadlar mavjud. Qo'yilgan maqsad qanchalik mazmunli ekanligini tushunish uchun unga erishgandan so'ng qanchalik foyda olib kelganligini aniqlash zarur.

T — time bound — vaqt bo'yicha chegaralar. Maqsad — bu cheklangan narsa, ya'ni uning muddati va yakuniy sanasi bo'lishi kerak. Vaqt oralig'ini belgilash imkoniyati maqsadga erishish jarayonini boshqariladigan qilishi mumkin [3].

Sun'iy intellekt (artificial intelligence (AI)) – funksional blokning, fikr-mulohaza, o'qish-o'rganish kabi odam intellekti bilan assotsiatsiyalanadigan funksiyalarni bajara olish qobiliyatiga ega bo'lgan texnologiya. Sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim resurslari: sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari asosida ta'lim oluvchining shaxsiy o'quv trayektoriyasini aniqlash va zaruriy ta'lim resurslarini taqdim etishga yo'naltirilgan bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan resurslar o'qitish usullarini yaxshilash, o'rganish tajribasini shaxsga yo'naltirish va ta'lim oluvchilar faoliyati haqida kerakli tushunchalarni berishi kerak. [4]

Ushbu ikkala rivojlangan texnologiya va tendensiyalarni ta'lim tizimimizda til o'rganish bilan bog'lagan quyidagi zamonaviy va mashhur applarni misol keltirish mumkin:

Duolingo (AI versiyasi – Duolingo Max) - dunyoda 500 mln+ foydalanuvchiga ega bo'lgan, o'yin (game) shaklida o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan, til o'rganishni mustaqil boshlovchilar uchun judayam foydali ilovadir.

ELSA Speak-AI talaffuz (pronunciation) ni tekshiradi, har bir tovushni alohida tahlil qiladi va til bilish darajasini aniqlashga yordam beradigan imtihonlar uchun ham foydalidir.

Speak (AI speaking app)-AI bilan real suhbat qilish, Xatolarni darhol tuzatish imkonini beruvchi va gapirishni tez rivojlantirish uchun TOP ilovadir.

Praktika AI-AI avatar (virtual o'qituvchi) bilan gaplashish go'yoki real odam bilan suhbatlashganday taassurot qoldirish orqali real darsga o'xshash tajriba beradi.

Talkio / TalkPal (AI chat tutor)-AI bilan chat bilan ish, intervyu, restoran va sayohat kabi hayotiy vaziyatlarga mos mavzularda gaplashish uchun foydalidir.

Grammarly- yozgan essay, maqola, xat va umuman barcha ingliz tilida yozilgan barcha gaplarni tekshirib, grammatik, so'z va tinish belgilarini qo'llash bilan bog'liq xatolarni ham aniqlab beradi.

Busuu / Babbel – tartib bilan o'rganishni xohlovchilar uchun strukturali kurs, darslik kabi bo'lib, ko'pincha real odam feedback beradi.

British Council tomonidan olib borilgan "Artificial Intelligence in English Language Teaching: Preparing for the Future" nomli tadqiqot ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni va ta'sirini keng qamrovda tahlil qiladi. Mazkur tadqiqotda dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlaridan 1300 nafardan ziyod

ingliz tili o'qituvchilari ishtirok etgan bo'lib, ulardan 1112 nafari sun'iy intellektning til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini baholagan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchilar sun'iy intellektni o'quvchilarning ingliz tilidagi asosiy to'rt ko'nikmasi — gapirish, yozish, tinglash va o'qishni rivojlantirishda samarali vosita sifatida baholaganlar. Xususan, sun'iy intellekt yordamida produktiv ko'nikmalarni rivojlantirishga bo'lgan ijobiy munosabat (gapirish – 76%, yozish – 75%) reseptiv ko'nikmalarga (tinglash – 74%, o'qish – 79%) nisbatan deyarli bir xil darajada ekanligi aniqlangan. Bu holat ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellekt ko'proq produktiv ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgani haqidagi qarashlardan biroz farq qiladi.

Shuningdek, o'qituvchilar tomonidan berilgan yozma izohlar sun'iy intellektning bir qator afzalliklarini ko'rsatib berdi. Jumladan, AI asosidagi vositalar o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlash, real vaqt rejimida tahrirlash va fikr-mulohaza berish, o'quvchilarning darajasiga moslashish hamda qiziqarli o'quv materiallarini taqdim etish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, ushbu texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish va baholovchi bosimsiz (non-judgmental) muhitda mashq qilishlariga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot sun'iy intellekt texnologiyalari ingliz tilini o'qitishda katta imkoniyatlar yaratishini ko'rsatadi, biroq samarali natijaga erishish uchun inson omili, ya'ni o'qituvchining roli hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Quyida o'tkazilgan yana bir so'rovnomada SMART texnologiyalar asosida Sun'iy intellekt dasturlaridan o'qituvchilar qanday maqsadlarda foydalanishi aniqlangan.




Figure 2A Teacher survey results: Which AI-powered tools teachers use

So'rovnomada ishtirok etganlar tomonidan eng ko'p qo'llanilgan sun'iy intellektga asoslangan vositalar til o'rganish ilovalari (48 foiz) bo'ldi. Keyingi eng keng qo'llanilganlari matn yaratuvchi sun'iy intellekt vositalari (37 foiz) va chatbotlar (31 foiz) bo'lgan bo'lsa, avtomatik baholash tizimlari (22 foiz), nutqni aniqlash dasturlari (21 foiz) hamda matnni ovozga aylantirish vositalari (19 foiz) kamroq foydalanuvchilarga ega bo'ldi. Ma'lumotlar va o'quv analitikasi vositalari (12 foiz)

hamda **virtual va kengaytirilgan reallik vositalari (7 foiz)** eng kam qo'llanilgan vositalar bo'ldi. Qatnashganlarning sezilarli qismi (**24 foiz**) esa sanab o'tilgan sun'iy intellekt vositalarining hech biridan foydalanmasligi aniqlangan.[5]

Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda ham me'yorlar va cheklovlar bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining "Raqamli ta'lim resurslari va ulardan foydalaniladigan dasturiy vositalarga qo'yiladigan umumiy talablar" nomli qo'llanmasida keltirilgan:

#### **7.6. Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga qo'yiladigan talablar**

Ta'lim kontentini sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida yaratishda, ta'lim maqsadini ta'minlash bilan bir qatorda mualliflik huquqini ham ta'minlashi, milliy urf - odatlar, ma'naviyat va ma'rifat, milliy g'oya va ta'lim maqsadini o'zgartirib yuborishga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Shuningdek:

**Ta'lim maqsadlariga muvofiqligi:** sun'iy intellekt ilovalari umumiy ta'lim maqsadlari va vazifalariga mos kelishi, ta'limning asosiy vazifasidan chetga chiqmasdan, ta'lim natijalarini yaxshilashi va qo'llab-quvvatlashi hamda sun'iy intellekt vositalari ta'lim beruvchilarni qo'llab quvvatlash vositasi sifatida qaralishi kerak;

**Shaxsga yo'naltirish va moslashtirish:** sun'iy intellekt tizimlari shaxsga yo'naltirilgan o'rganish tajribasini taqdim eta olishi kerak. Bu ta'lim mazmuni, sur'ati va baholashni individual talabalarga moslashtirishni o'z ichiga oladi hamda ta'lim oluvchilarning o'z tezligida, o'ziga xos kuchli va zaif tomonlariga mos ravishda rivojlanish imkonini beradi;

**Ma'lumotlardan axloqiy foydalanish:** sun'iy intellekt algoritmlari yordamida ta'lim oluvchi ma'lumotlarini to'plash, saqlash va ulardan foydalanishda axloqiy me'yorlarga qat'iy rioya qilishni o'z ichiga olishi kerak. Shuningdek, maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun maxfiylik va xavfsizlik choralarini ko'rilishi hamda ulardan qanday foydalanilishi shaffof bo'lishi kerak.

**Doimiy monitoring va baholash:** sun'iy intellekt tizimlarini muntazam ravishda monitoring qilish va baholash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Chunki bu ularning ta'lim natijalariga ta'sirini baholash, takomillashtirish sohalarini aniqlash va texnologiya rivojlanayotgan ta'lim ehtiyojlariga mos kelishini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Sun'iy intellekt texnologiyalari asosan sun'iy neyron tarmoqlaridan iborat bo'lganligi uchun shaxsga doir ma'lumotlar konfidensialligiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Qo'llanilayotgan algoritm va vositalar aniq tasniflanishi, ya'ni ta'lim oluvchilarning bilimini yanada mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish va ulardan samarali foydalanish uchun ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik imkoniyatlarini inobatga olish va yetarli darajada raqamli resurslar mavjud bo'lishi kerak. Avtomatlashtirilgan baholash, imtihonlarni o'tkazish yoki shu kabi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajalarini aniqlash maqsadida tatbiq etilgan sun'iy intellekt texnologiyalarini aniq ishlashini ta'minlash lozim. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilganda shaxsga doir ma'lumotlarni konfidensialligi kafolatlanishi shart. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda tenglik tamoyiliga rioya qilish kerak. Ta'lim jarayonlarida sun'iy intellekt qo'llanilganda, jarayon ishtirokchilarining yoshi,

jinsi, ma'lumoti, millati, kelib chiqishi va ijtimoiy holatidan qat'iy nazar, ular uchun teng imkoniyatlar yaratilishi lozim.

Shuningdek, sun'iy intellektga asoslangan LMS, chat-bot, virtualyordamchi, simulyatsiya, o'yin yoki virtual laboratoriya shaklidagi dasturiy mahsulotlar amaliyotga tatbiq etilishidan oldin axborot tizimlarini testlovchi va soha ekspertlari tomonidan ekspertizadan o'tkazilishi kerak.

Yuqoridagi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda, quyidagicha xulosaga kelish mumkin: xorij yoki yurtimizda, onlayn yoki oflayn, maktabgacha ta'lim yoki Oliy ta'lim muassasalarida bo'lishidan qat'iy nazar barcha til o'rganuvchilar uchun SMART texnologiyalar orqali AI dan foydalanish ham vaqtni va ham naqdni tejashga olib keluvchi vositadir. Biroq, tadqiqot natijalari sun'iy intellektning ayrim cheklavlari ham mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, AI tizimlarida insoniy hissiyotlarning yetishmasligi, tilning nozik jihatlarini, jumladan hazil va kontekstni to'liq anglay olmaslik hamda o'quvchilarning texnologiyaga haddan tashqari bog'lanib qolish xavfi qayd etilgan. Shu bois, sun'iy intellektdan foydalanish an'anaviy ta'lim usullarini to'ldiruvchi vosita sifatida qaralishi, ammo ularni to'liq almashtirmasligi lozimligini ta'kidlash o'rinlidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. (2017yil 7-fevral, PF-4947-son).
2. Russell, Stuart J.; Norvig, Peter.. Artificial Intelligence: A Modern Approach, 4th, Hoboken: Pearson, 2021. ISBN 978-0-13-461099-3.
3. Begbo'tayev A.E., "Tarmoq texnologiyalari" fanini o'qitishni
4. takomillashtirishning ilmiy - pedagogik asoslari. Monografiya. – O'zbekiston
5. Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent, «Tafakkur»
6. nashriyoti, 2020. 125 bet.
7. O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi. Raqamli ta'lim resurslari va ulardan foydalaniladigan dasturiy vositalarga qo'yiladigan umumiy talablar. – Toshkent, 2024.
8. Edmett, Adam, et al. Artificial Intelligence and English Language Teaching: Preparing for the Future. 2nd ed., British Council, 2024.